

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TIZIMLI ISLOHOTLAR

Mualliflar: **Karimova Soliha Muradulla qizi**

Student, Tashkent State Medical University

Tashkent, Uzbekistan

Ilmiy rahbar: **Iskandarov Sherzod**

Teacher, Tashkent State Medical University

Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tahliliga bag‘ishlangan. Unda sog‘liqni saqlash, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimidagi tarkibiy o‘zgarishlar normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ko‘rsatkichlar asosida yoritilgan. Yangi tizimlarning joriy etilishi natijasida tibbiy xizmat sifati oshgani, ishsizlik kamaygani va ijtimoiy yordam manzilliligi ta‘minlanayotgani asoslab berilgan.

Аннотация

Эта статья посвящена анализу широкомасштабных реформ, проводимых в последние годы в социальной сфере Республики Узбекистан. В ней освещены изменения в сфере здравоохранения, занятости, сокращения бедности и системы социальной защиты на основе нормативно-правовых документов и статистических показателей. Обосновано, что в результате внедрения новых систем повысилось качество медицинского обслуживания, снизилась безработица и обеспечивается адресность социальной помощи.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy siyosat, sog‘liqni saqlash islohotlari, bandlik, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, raqamlashtirish, Ijtimoiy reyestr.

Kirish

Bugungi globalashuv va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida har qanday davlatning barqaror rivojlanishi, eng avvalo, ijtimoiy sohadagi samarali siyosat bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuslari asosida so'nggi yillarda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, aholi farovonligini oshirish va kuchli ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash har qanday huquqiy-demokratik davlatning muhim funksiyasi ekanligi Farmon darajasida mustahkamlanib, bu borada kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Asosiy qism

O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini keng miqyosda modernizatsiya qilishni boshladi va tibbiy xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga olib chiqish bosh maqsad etib belgilandi. 2024-yil 22-yanvardagi PQ-38-son qarori bilan Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, 40 ta amaliy harakatni o'z ichiga olgan rivojlantirish takliflari ishlab chiqildi. Ushbu hujjat asosida "Sog'liqni saqlash loyihalari markazi" tashkil etilib, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish va xususiy sektorni keng jalb qilish vazifalari belgilandi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti YMBning yangi hisobotida hukumatning Sirdaryo viloyatida boshlangan sog'liqni saqlash sohasidagi muvaffaqiyatli o'zgarishlarni mamlakat bo'ylab kengaytirish rejalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umummilliy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha bir qator tavsiyalar berilgan. "O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar: ikki yillik amalga oshirish sharhi" nomli hisobotda uchta asosiy jihat ajratib ko'rsatilgan:

- birlamchi tibbiy-sanitariya yordami tizimidagi o'zgarishlar;
- sog'liqni saqlashni moliyalashtirish sohasidagi islohotlar;
- sog'liqni saqlash sohasida raqamli vositalarni yanada rivojlantirish.

Bundan tashqari tez tibbiy yordam xizmatida elektron boshqaruv yo'lga qo'yilib, chaqiriqlarga yetib borish vaqti o'rtacha 25-30 daqiqadan 10-15 daqiqagacha qisqardi.

Ilgari asosan poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik diagnostika va davolash usullarining 400 dan ortig‘i hududlarga olib kirildi. Bundan tashqari, “Elektron retsept” tizimining joriy qilinishi ortiqcha dori vositalari yozilish holatlarini 40 foizga kamaytirib, farmatsevtika sohasida shaffoflikni ta’minladi.

So‘nggi yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning naqadar chuqur va samarali ekanligini yaqqol namoyon etmoqda. Bir necha yil avval yalpi ichki mahsulot hajmini 100 milliard AQSh dollari darajasiga yetkazish o‘ta ulkan va murakkab strategik maqsad sifatida qaralar edi. Biroq 2025-yil yakunlariga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarixda ilk bor 145 milliard dollarlik chegaradan o‘tdi. Mazkur natija nafaqat izchil iqtisodiy islohotlarning amaliy samarasini, balki ichki iqtisodiy salohiyatning to‘liq safarbar etilganini, tadbirkorlik faolligining misli ko‘rilmagan darajada oshganini hamda xorijiy sheriklar bilan hamkorlikning kengayib, mustahkamlanib borayotganini aks ettiradi. Shu ma’noda erishilgan ijobiy iqtisodiy dinamika jamiyat, davlat va xususiy sektorning umumiy hamkorlikdagi yutug‘i sifatida e’tirof etilishi lozim. Asosiy vazifalardan biri mamlakatimizni o‘rtacha daromad darajasidan yuqori bo‘lgan davlatlar toifasiga olib chiqishdir. Buning uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSh dollariga yetkazishdek ulkan maqsad qo‘yildi. Ushbu ko‘rsatkichga erishish ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, har bir oila farovonligini oshirish va mahallani jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida mustahkamlash uchun mustahkam iqtisodiy asos bo‘ladi. Ijtimoiy siyosatning yana bir muhim yo‘nalishi – aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allik darajasini pasaytirishdan iborat. So‘nggi yillarda olib borilgan izchil siyosat natijasida mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi 10,5 foizdan 2024-yil boshida 6,8 foizga, kambag‘allik darajasi esa 2021-yildagi 17 foizdan 2024-yilda 11 foizga tushdi.

Aholi bandligini ta’minlash maqsadida 113 ming nafar ishsiz fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitilib, 64 ming nafar shaxs xorijda uyushgan holda ishga yuborildi. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida esa oilaviy tadbirkorlikni

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ehtiyojmand oilalarning iqtisodiy faolligini oshirish choralari ko'rilmoqda. Bundan tashqari, axoli orasida tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida ko'plab huquqiy-iqtisodiy o'zgartirishlar kiritildi, jumladan, 18 yoshga to'lgan, muomalaga layoqatli har qanday O'zbekiston fuqarosi davlat ro'yxatidan o'tgan holda rasman tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishi mumkin; 2026-yildan boshlab yillik aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan YTTlar uchun eng muhim o'zgarish – daromad solig'i 1 foiz etib belgilandi. Yakka tartibli tadbirkorlar bunday soddalashtirilgan va past soliq stavkasidan to'liq foydalanish imkoni yaratilganligi, yosh tadbirkorlarni mahalla, tuman, viloyat tomonidan qo'llab quvvatlanishi mamlakat taraqqiyotini va infratuzilmasini tubdan o'zgarishiga qaratilgan turtki bo'lib hizmat qiladi. Avvalgi qat'iy belgilangan soliqlar bekor qilinib, soliq yukingiz bevosita haqiqiy daromadga bog'liq etib belgilanishi, masofaviy ro'yxatdan o'tish huquqi, YTT sifatida 5 nafargacha xodim yollash huquqi va boshqalarni bunga qo'shimcha qilishimiz mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasini yangi bosqichga olib chiqish, ehtiyojmand fuqarolarga davlat ko'magini manzilli va shaffof tarzda yetkazish, xizmatlarni raqamlashtirish hamda ularni proaktiv shaklda taqdim etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda nogironligi bo'lgan shaxslar, o'zgarlar parvarishiga muhtoj fuqarolar, nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ijtimoiy himoyani kuchaytirish borasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri 2025-yil 26-dekabrda PF-258-son Farmonidir. Ushbu Farmon bilan 2026-yil 1-fevraldan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" va "Kambag'al oilalar reyestri" negizida yagona Ijtimoiy reyestr joriy etildi. Endilikda oilalar ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, "davlat ta'minotidagi oila", "kambag'al oila" va "kambag'allik chegarasidagi oila" toifalariga ajratiladi. Bu tizim ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish bilan birga, fuqarolarni qo'shimcha hujjat yig'ish sarsonligidan xalos etadi. Xususan, 2026-yil 1-iyunga qadar 0-3 yoshda rivojlanishida nuqsonlar aniqlangan bolalar uchun ilk bor "Erta aralashuv" xizmati bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Ushbu xizmat orqali maxsus pedagoglar va davolovchi jismoniy tarbiya yo‘riqchilari ishtirokida bolalarga korreksion-pedagogik yordam, nutq va jismoniy rivojlantirish mashg‘ulotlari ko‘rsatiladi. Xizmat nodavlat tashkilotlar tomonidan maxsus elektron reyestr asosida yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, anatomik nuqsonlar bilan tug‘ilgan bolalarning qo‘shimcha tibbiy tekshiruv va jarrohlik xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan qoplanadi.

Shuni qayd etib o‘tishimiz lozimki, ijtimoiy islohotlar samarasini o‘lchashda aniq statistik ma‘lumotlarning ahamiyati katta. 2025-yilgi PF-27-son Farmon bilan Milliy statistika qo‘mitasining vakolatlari kengaytirilib, “Hududlar statistikasi” axborot tizimi ishga tushirildi. Farmonga ko‘ra statistika ishlari samaradorligini yanada oshirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

(a) makroiqtisodiyot va tarmoqlar darajasida statistik kuzatuv o‘tkazish tizimini hamda ularning metodologiyasini xalqaro standart va tavsiyalarga muvofiq takomillashtirib borish;

(b) integratsiya jarayonlarini kengaytirish orqali statistik hisobotlarni qisqartirish va biznesga hisobot topshirish yukini kamaytirib borish;

(v) “mahalladan — respublikagacha” tamoyili bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish tizimini yaratish orqali ma‘lumotlarning ishonchliligini ta‘minlash;

(g) xorijiy statistika organlari hamda sohaga oid xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, ular yordamida kadrlar salohiyatini oshirish;

(d) aholi, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari ehtiyojidan kelib chiqib yangi statistik mahsulot va xizmatlarni joriy etish.

Hususan, hududlardagi demografik holat, iqtisodiy faollik va turmush darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratildi. Tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida kichik biznes subyektlari uchun statistik hisobot topshirish davriyligi yiliga bir martadan uch yilda bir martaga qisqartirildi.

Xulosa

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar mazmun-mohiyatiga ko‘ra, faqatgina yordam ko‘rsatish bilan cheklanmay, balki inson kapitalini rivojlantirishga, aholining o‘zini-o‘zi band qilish salohiyatini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik va shaffoflikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Sog‘liqni saqlashdagi yutuqlar, bandlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi va Ijtimoiy reyestr kabi yagona axborot tizimining ishga tushirilishi mamlakatda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur islohotlarning izchil davom ettirilishi aholining keng qatlamlari farovonligini yangi bosqichga olib chiqish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi “Sog‘liqni saqlash sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-38-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-258-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-17-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-fevraldagi “Milliy statistika tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni.
5. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. O‘zbekistonda 2024-yilda kambag‘allik darajasi 8,9 foizga qisqardi. – Toshkent: Gazeta.uz, 2025-yil 3-fevral.

6. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. 2024-yil yakuniga ko‘ra kambag‘allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga kamaydi. – Toshkent: gov.uz, 2025-yil 2-fevral.

7. Raqamli texnologiyalar vazirligi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi raqamli islohotlar tahlili. – Toshkent: digital.gov.uz.